

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA AHOLINI RO‘YXATGA OLIISH TARIXI

University of science and technologies
Iqtisodiyot kafedrasida o‘qituvchisi M.S. Xamitova
E-mail:mavludaxamitova568@gmail.com
Talaba U. A. Turopova

Kalit so‘zlar: aholi, aholi ro‘yxati, inson salohiyati, iqtisodiyot, demografiya, davlat kadastr va statistic orgnlari, etnik tarkib, tug‘ilish, o‘lim, aholi punktlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholini ro‘yxatga olishning tarixiy jihatlari bilan birga ilmiy asoslari ham yoritib berilgan. O‘zbekiston hududida olingan aholi ro‘yxatlari haqida bir qancha ma’lumotlar keltirilgan. Davlat dasturi asosida kiritilgan Qonun va uning Nizomiga-asoslangan-holda-Respublikada o‘tkazilishi rejalashtirilgan “aholi ro‘yxati” to‘g‘risida bayon qilingan.

Har qanday davlatning tarixi bu-birinchi navbatda, unda yashaydigan xalqning tarixi, aholisining soni va tarkibi, uning iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarida o‘z aksini topadi. Aholi soni bo‘yicha aniq va yaxlit ma’lumotlar aholini ro‘yxatga olish asosida olinadi.

Aholini ro‘yxatga olish yakunlariga qarab o‘tmish va hozirgi davr haqida fikr va mulohazalar yuritish hamda kelajakni taxmin qilish mumkin bo‘ladi.

Aholining ro‘yxatga olishda asosan – aholining yoshi, jinsi, milliy tarkibi, ma’lumot darajasi, nikoh holati, bandligi va aholining turmush tarzidagi boshqa ma’lumotlarini olishning yagona manbai bo‘lib xizmat qila oladi.

Aholini ro‘yxatga olish bu-mamlakat aholisining muayyan vaqtdagi “fotosurati”ni olish imkonini beruvchi umumdavlat miqyosidagi keng ko‘lamli tadbir bo‘lib, aholi to‘g‘risidagi ishonchli axborot manbai hisoblanadi.

Aholini ilk marotaba ro‘yxatga olish qadimgi Gretsiya, Vavilon, Mesopotamiya, Rim, Xitoy, Yaponiya va Misr davlatlaridan boshlangan. Ammo bu aholi ro‘yxatlarining maqsadi aholidan soliq yig‘ish, hamda harbiy maqsad uchun aholi sonini aniqlash bo‘lgan. Shu sababli ham, bu aholi ro‘yxatlarida asosan erkaklar ro‘yxatga olingan. Chunki, u paytlarda erkaklarning iqtisodiy o‘rni yuqori bo‘lgan, soliq to‘lashda faqat erkaklar, ya’ni oila boshliqlari qatnashgan.

Aholini eng birinchi rasmiy ro‘yxatga olish 1790-yilda AQShda, keyinchalik esa 1800-yilda Shvetsiya va Finlyandiyada, 1801-yilda Angliya, Daniya, Norvegiya va Fransiyada o‘tkazilgan. Ammo bu aholi ro‘yxatlari juda oddiy shaklda hamda uzoq muddatga cho‘zilgan. Masalan, birinchi AQShda aholini ro‘yxatga olish ishlari 18 oy davomida olib borilgan.

XIX asrga kelib aholini ro‘yxatga olish juda keng tarqalib, ommalashib brogan. Yevropa mamlakatlarida statistika tashkilotlari tuzila boshlagan. Aholini ro‘yxatga olish ilmiy dasturlar asosida olib borilishi yo‘lga qo‘yilgan. Shunga ko‘ra, 1870-1879 yillarda dunyoning 48 ta, 1890 yillarda esa 57 ta davlatida aholi ro‘yxatdan o‘tkazilgan. XIX asr oxirida dunyo aholisining 21 foizi ro‘yxatga

olingan. XX asr boshlarida esa 54 foiz aholi ro'yxatga olingan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin, aholini ro'yxatga olish yanada takomillashib borgan. 1945-1954 yillarda – 151 ta davlatda, 1965-1974 yillarda – 179 ta davlatda aholi ro'yxatdan o'tkazilgan. Hozirgi kunga kelib, dunyodagi deyarli barcha davlatlarda aholini ro'yxatga olish ishlari olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasida ham aholini ro'yxatga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarini o'rganishda mamlakatimiz hududlarida o'tkazilgan aholi ro'yhati asosiy rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi hududlararo kesimida dastlabki aholi ro'yxati 1897 yilda o'tkazilgan bo'lib, ushbu ro'yxat ma'lumotlari XIX asr oxirida O'zbekistonda mavjud oilalar soni, aholi soni, yoshi va jinsi, etnik tarkibi, tug'ilish, o'lim kabi demografik jarayonlar haqida ma'lumotlar yig'ishda yordam bergan. O'zbekiston hududida keyinchalik 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989- yillarda aholini ro'yxatga olish ishlari olib borilgan.

2022 yilda O'zbekiston Respublikasida sinov tarzida aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilgan bo'lib, avvaliga Prezidentning tegishli farmoni (PF-5308-son) bilan tasdiqlangan davlat Dasturi ijrosi doirasida Davlat statistika qo'mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda aholini ro'yxatga olish konsepsiyasi ishlab chiqiladi. 2019 yil 5 fevralda esa mamlakatimiz rahbarining «O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi (PF-5655-son) Farmoni qabul qilinadi. Joriy yilning mart oyida «Aholini ro'yxatga olish to'g'risida»gi qonuni imzolanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 710-sonli “O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori qabul qilinadi. Ushbu Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga ilova qilib, “O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish tartibi to'g'risida”gi 9 bob, 73 banddan iborat Nizom tasdiqlandi. Qarorga ko'ra O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish 2023-yil 1 – 25 noyabr kunlari amalga oshirilishi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi 2022-yil 1-iyunga qadar aholini ro'yxatga olish uchun zarur bo'lgan miqdorda kartografik materiallar (shahar va qishloq aholi punktlarining sxematik rejaları va xaritalari) bilan ta'minlashi belgilab berilgan.

Nizomning umumiy qoidalariga ko'ra, ro'yxatga olish 2023 yil 1-25 noyabr kunlari o'tkaziladi va ro'yxatga olish boshlanishining aniq payti 2023 yil 1-noyabr soat 00.00 etib belgilanadi. Ro'yxatga olishni o'tkazish davomiyligi 25 kunni tashkil etadi. Respondentlarning shaxsga doir ma'lumotlarini yig'ishda ro'yxatga olish sanasidan keyin sodir bo'lgan demografik holatlar hisobga olinmaydi. 2023-yil 1-noyabrdan keyin tug'ilgan bolalar uchun ro'yxatga olish hujjatlari to'ldirilmaydi, biroq ushbu sanadan keyin vafot etgan shaxslar uchun to'ldiriladi. Bunda vafot etgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar uning voyaga yetgan, muomala layoqatiga ega oila a'zolari yoki mahalla idorasidagi mavjud ma'lumotlar asosida to'ldiriladi. Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini hisobga olib aholi punktlarida yashovchi aholi sonini ko'rsatgan holda aholi punktlarining to'liq ro'yxati tuzilishini ta'minlash vazifasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar

Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar hokimliklariga belgilab berilgan. Ro'yxatga oluvchi xodimlar tomonidan tayyorlangan yig'ma ro'yxatlar natijalari asosida shahar va qishloqlar shu jumladan, erkaklar va ayollar bo'yicha dastlabki ma'lumotlar shahar va qishloq aholisiga ajratilgan holda shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar bo'yicha aholini ro'yxatga olishning dastlabki ma'lumotlari 2024-yil 1-martga qadar tayyorlanadi. Aholini ro'yxatga olish natijalarini chop etish Qo'mita va uning hududiy organlari tomonidan 2025-yil 1-dekabr gacha rasmiy bosma nashrlarda, shuningdek, elektron manbalarda, foydalanuvchilarning keng ommasi uchun ommabop nashrlarda va Qo'mitaning rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali e'lon qilinadi.

Xalqaro tavsiyalarga ko'ra, aholini ro'yxatga olish quyidagi muhim tamoyillarga asoslanadi:

1. Aholini ro'yxatga olishni boshqarishning qat'iy markazlashtirilishi ushbu tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy shartlaridan biri bo'lishligi;

2. Aholini ro'yxatga olishning muntazamliligi. BMT tavsiyalariga ko'ra, aholini ro'yxatga olish 10 yilda kamida bir marotaba o'tkazilishi belgilanganligi;

3. Aholini ro'yxatga olish maxsus tayyorlangan mutaxassislar, ya'ni hisobchilar tomonidan o'tkazilishi. Mazkur tadbirni amalga oshirish uchun ko'p miqdorda maxsus xodimlar yollanadi, ularning tarkibiga ziyolilar hamda talabalar ham kiritilishi mumkinligi;

4. Aholini ro'yxatga olishda aniq bir muddatda o'tkazilishi kerakligi.

Bu tadbirni amalga oshirishga odatda 10–12 kun talab etiladi. Aholini ro'yxatga olish bir necha kun davomida o'tkazilsa ham, ma'lumotlar aniq bir vaqtda – ko'pincha aholini ro'yxatga olishning birinchi kunining 0 soatdagi holati bo'yicha qayd etiladi. Bu aholini ro'yxatga olishning nozik vaqti (kritik fursat), deb ham ataladi. Bunga misol qilib shuni keltirish mumkin ki masalan, chaqaloq aholini ro'yxatga olish davrida, ammo ana shu aniq muddatdan keyin tug'ilgan bo'lsa, u aholi ro'yxatiga kiritilmaydi. Lekin, kimdir bu aniq nozik muddatda hayot bo'lib, shundan keyin, ya'ni aholini ro'yxatga olish davrida vafot etsa, u aholi ro'yxatiga kiritiladi;

5. Aholini ro'yxatga olishning belgilab qo'yilgan aniq dasturining mavjudligi va tadbirni unga qat'iy rioya qilgan holda o'tkazish.

Aholini ro'yxatga olish dasturi – ro'yxatga olishda muayyan talablarni hisobga olgan holda, aholiga murojaat qilinadigan savollar ro'yxatini, ma'lumotlarni qayd etish, to'plash, qayta ishlash, yakuniy ma'lumotlarni e'lon qilish tartiblarini o'z ichiga olishligi;

6. Aholining to'liq qamrab olinishi. Aholini ro'yxatga olishda kimdir unutib qoldirilishi yoki ikki marta ro'yxatga olinishi hollari uchrasa ham, mavjud aholining ro'yxatdan joy olinishini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanishligi;

7. Ma'lumotlarning maxfiyligi va shaxsiylashtirilishi. Aholini ro'yxatga olishda individual asosda har bir shaxs to'g'risidagi yakka ma'lumotlar to'planadi. Shu bilan birga, respondentlardan olingan ma'lumotlarning nomsizligi kafolatlanadi. Aholini ro'yxatga olish varaqasidan faqat natijalarni umumlashtirish

uchun foydalanish kerakligi;

8. Shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar so'ralayotgan shaxsning (kichik yoshdagilar uchun ota-onalari yoki ularning o'rnini bosadigan shaxslar) javoblari asosida qayd qilinadi va buni hujjat bilan tasdiqlash talab etilmasligi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish o'tkazilmagan. Shu sababli aholining soni, yosh-jins tarkibi, hududiy joylashuvi xususiyatlari va boshqa ijtimoiy-demografik holatlaridagi o'zgarishlar aholining joriy hisobi bo'yicha mavjud ma'lumotlarni qo'llashni sezilarli darajada cheklab borgan.

Aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish ishlari keng qamrovli tadbir bo'lib, ketma-ket hamda bir vaqtning o'zida tegishli tadbirlarni amalga oshirish mumkin bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi, ya'ni:

Birinchi bosqichda (3 yilgacha bo'lgan muddat) quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

-aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish, o'tkazish tamoyillari, uslubiy asoslari va moliyalashtirish manbalarini aniqlash masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlanadi:

-aholini ro'yxatga olish tadbiri dasturini;

-aholini ro'yxatga olishni o'tkazish, uning natijalarini olish va e'lon qilishni tashkil etish uslubiyati ishlab chiqiladi, aholini sinov asosida ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni tashkil etish, uning natijalarini tahlil qilish ishlari olib boriladi;

-aholi punktlaridagi uylarning ro'yxatini tuzish va aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishning tashkiliy rejasi tuziladi;

-har bir xonadon raqamlanishi va ko'chalar nomlanishini amalga oshiriladi;

-zamonaviy xaritalash texnologiyalaridan foydalangan holda aholini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish, uning o'tkazilishini nazorat qilish, yakuniy natijalarni olish va taqdim etishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish orqali tadbir monitoring qilib boriladi;

-aholiga aholini ro'yxatga olishning maqsadi va vazifalari axborot-tushuntirish ishlari orqali tanishtiriladi;

-ro'yxatga olish varaqalari va boshqa hujjatlarni chop etilib, joylardagi mutaxassislariga etkaziladi;

-ro'yxatga olish uchastkalarini bino, transport va aloqa vositalari bilan ta'minlash ishlari tashkil etiladi;

-ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etuvchi vaqtinchalik xodimlarni o'qitilib, ular zaruriy vositalar bilan ta'minlanadi;

-aholini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq boshqa ishlar olib boriladi.

Ikkinchi bosqichda (10 kundan 60 kungacha bo'lgan davr):

-bevosita aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish ishlari amalga oshiriladi, ya'ni aholi to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi, nazorat tekshiruvi o'tkaziladi va aholini ro'yxatga olish tadbiri materiallari qayta ishlash uchun ixtisoslashgan tuzilmalarga taqdim etiladi.

Uchinchi bosqichda (2 yildan 3 yilgacha bo'lgan davr) quyidagilar amalga

oshiriladi:

-aholini ro'yxatga olish tadbirining birlamchi materiallari ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha ixtisoslashgan tuzilmalar tomonidan qabul qilib olinadi;

-aholini ro'yxatga olish tadbiri materiallarini avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashga tayyorlanadi;

-birlamchi ma'lumotlarni kiritish, kodlashtirish, nazorat va tahrir qilish ishlari amalga oshiriladi;

-aholini ro'yxatga olish bo'yicha dastlabki natijalar olinadi;

-aholini ro'yxatga olish tadbiri natijalarini e'lon qilish va ularni tarqatish ishlari amalga oshiriladi.

Aholini ro'yxatga olish bo'yicha vakolatli organ – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisoblanib, ular quyidagi muhim vazifalarni amalga oshiradilar:

a) muhim ilmiy va oliy ta'lim muassasalari ishtirokida aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish bo'yicha ilmiy-uslubiy va qo'llanma materiallarni tayyorlaydi;

b) har bir aholi punktida aholini ro'yxatga olish ishlarini muvofiqlashtiruvchi ro'yxatga olish uchastkalari mudirlarining, davlat statistika organlari xodimlari tarkibidan supervayzerlar (nazoratchi instruktorlar)ning tayinlanishini ta'minlaydi;

c) joylardagi tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda, ro'yxatga oluvchi xodimlarni o'qitishni, shuningdek, ro'yxatga olish varaqalarini sinov ko'rinishida to'ldirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni, keyinchalik xatoliklarni tahlil qilish va yuzaga kelgan qiyinchiliklarni tushuntirish orqali o'tkazilishini (o'qitish ishlari o'qitilayotgan xodimlarning o'rganilayotgan materialni to'g'ri o'zlashtirganliklari va ro'yxatga olish ishlariga tayyor ekanliklarini sinovdan o'tkazgandan so'ng yakunlanadi) amalga oshiradi;

d) O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda:

ro'yxatga olish natijalarini qayta ishlash bo'yicha moddiy-texnik vositalarni sotib olish, server uskunalari, ro'yxatga olish varaqalarini mashinada o'qishni ta'minlovchi skanerlar va boshqa ofis texnikalari bilan ta'minlash bo'yicha tenderlar tashkil etish va o'tkazilishini ta'minlaydi;

aholini ro'yxatga olish varaqalari ma'lumotlarini kiritish va qayta ishlash bo'yicha avtomatlashtirilgan tizim yaratadi;

aholini ro'yxatga olish tadbirlari natijalarini olish bo'yicha dasturiy vositalarni ishlab chiqadi;

e) O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentliklari bilan birgalikda, aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilishi haqida aholini xabardor qilish, ro'yxatga olish tadbirlarida faol ishtirok etish bo'yicha aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish, reklama roliklari, shiorlar chiqarish va boshqa shu kabi tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi.

Bu tadbirga nafaqat statistika organlari xodimlari, balki respublikaning boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ham aholini ro'yxatga olish ishlarida bevosita ishtirok etadilar. Masalan:

O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat

kadastrı bo'yicha davlat qo'mitasi aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish uchun zarur bo'lgan miqdorda kartografik materiallarning (shahar va qishloq aholi punktlarining sxematik rejasi, ma'muriy tumanlar xaritasi) tayyorlanishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi esa aholini ro'yxatga olish varaqalarini va boshqa hujjatlarni saqlash bo'yicha ishlarni olib boradi, shuningdek, aholini ro'yxatga olishning yig'ma hujjatlarini qayta ishlangandan keyin doimiy saqlanishini yuritadi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi esa quyidagilarni amalga oshiradi:

aholini ro'yxatga olishga jalb etilgan shaxslarning to'liq xavfsizligi va ro'yxatga olish materiallarining saqlanishini ta'minlaydi;

ro'yxatga olishni o'tkazish davrida aholini ro'yxatga olish organlarining binolari va yuklarini qo'riqlashni amalga oshiradi;

aholini ro'yxatga olish organlari bilan birgalikda, ro'yxatga olishni o'tkazish uchun zarur ma'lumotlarni berishdan bosh tortgan yoki korxonaga va tashkilot hududiga kiritishga to'sqinlik qilgan shaxslarga nisbatan ma'muriy ta'sir choralari ko'rishı mumkin.

Aholini ro'yxatga olish uchun tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish bo'yicha alohida ishlar jalb etilgan pudrat tashkilotlari tomonidan mahsulotlar va xizmatlar sotib olish bo'yicha o'tkazilgan tanlov asosida bajariladi, ya'ni:

Aholini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishga ko'maklashish uchun zarur hollarda qo'shimcha ravishda boshqa vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar jalb etilishi ham mumkin.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish lozimki, aholini ro'yxatga olish tadbiri mamlakatimiz uchun:

aholining aniq sonini, ya'ni yoshi, jinsi tarkibi, fuqaroligi, oilaviy ahvoli, nogironligi bo'yicha batafsil ma'lumotlarda,

aholi jon boshiga makro iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda,

aholi migratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllanishida,

milliy barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish ko'rsatkichlarini shakllantirishda va xalqaro tashkilotlar va foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan tahlillar uchun ko'pgina ma'lumotlar va yangiliklar manbaida o'zining foydali tomonlarini va ko'rsatkichlarini namoyon eta oladi.

Bu ma'lumotlar va ko'rsatkichlar bandlik sohasidagi siyosatni belgilash, ijtimoiy siyosat va aholi salomatligi bo'yicha dasturlarni yaratishda, shuningdek davlat hokimiyati organlarining vazifalarini bajarishda fan va jamiyatni axborot bilan ta'minlashda eng zaruriy omil bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida esa aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga asoslanib, "ijtimoiy-himoya", "investitsiya", "turizm" va shu kabi dasturlar natijalarini baholash, iqtisodiy va demografik siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mamlakatda rejalashtirilgan aholini ro'yxatga olish ishlari hududlarning geografik va demografik qiyofasi yaratilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 1 – том. –Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – 566 б.
2. <https://stat.uz>
3. <https://lex.uz>, <https://xabar.uz>.